GLOBALLASHUV DAVRIDA AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASHDA MIGRATSION JARAYONLARNING TA’SIRI

Idiboyev Abror Jamolovich
Jizzax viloyati yuridik texnikumi direktori

Annotatsiya: maqolada migratsiya bugungi kunning murakkab global hodisasiga aylanib borayotganligi, hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida migratsion harakatlarga alohida e’tibor qaratilib kelinayotganligi, emigrantlarning aksariyati mehnat migrantlarini tashkil qilishi, bu esa, o‘z navbatida, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga katta ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, globalizatsiya, migratsiya, migrant, feminizatsiya, ijtimoiy yo‘naltirilgan boshqaruv, migratsiya jarayonlari, migratsiyaning uyushgan shakllari, mehnat migratsiyasi tushunchasi, qonuniy migratsiya, yoshlar migratsiyasi, asosiy mehnat resursi, ratsipient, modern, postmodern, syurrealizm, abstraktsionizm, dinamizm, impressionizm, pop-artxeppening, shlyager, avangard, giperrealizm, inkrustatsiya, kordebalet.

XXIasr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo‘q, deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a’zo bo‘lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayriixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida "global", "globalizatsiya", "globallashuv" tushunchalari keng qo'llanilmoqda. Ularning umumiy xususiyatlari umuminsoniy, umumplanetar voqelikda namoyon bo'lgani uchun ko'pchilik atama, tushuncha qo'llab o'tirmaydi. Globallashuv alohida atama, tushuncha ekani aksioma sifatida talqin qilinadi[1].

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi dunyodagi barcha davlatlar rivojlanishiga jumladan, xalqaro migratsiyaning ahamiyati sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo miqyosida demografik o'sish, bandlik va ishchi kuchiga bo'lgan talab, migrantlar miqdorining ko'payishiga va migratsiya ko'lamining kengayishida asosiy rolni o'ynamoqda.

Biz migratsiya harakatining qaysi turlari haqida so'z yuritmaylik migratsion jarayonlarning barchasida birlamchi ehtiyojlarga (tirikchilikka) bo'lgan iqtisodiy ehtiyoj bilan uzviy bog'liqligi ifodalanib, ya'ni iqtisod migratsiyasi birinchi navbatda mehnat migratsiyasini tashkil etadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, "sayyoramizda xalqaro migrantlar soni 281 million kishini ularning aksariyati mehnat muhojirlari tashkil etib, 1990 yilga nisbatan 119 millionga oshgan"[2]. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi migratsiyani demografik o'sishida va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida migratsiyani boshqarishga xizmat qilmoqda.

«Mamlakatimizda har yili 600-700 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi. Qariyb 200 ming kishining bandligini tashqi mehnat migratsiyasi orqali ta'minlashga to'g'ri kelmoqda. Qayerda mehnat migratsiyasi to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa bandlik, oilalar daromadi, malakali mutaxassislar ko'paygan»[3].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, respublikamizda 70-80 ming nafar yoshlar oliy o'quv yurtini tamomlamoqda, lekin mutaxassisligi bo'yicha ish o'rinlarni yetarli emasligi, nisbatan ish haqini pastligi, mehnat bozorini torligi oliy ma'lumotli yoshlarni xorijiy mamlakatlarda ish izlashiga sabab bo'ladi. Mashhur iqtisodchi, ham faylasuf tadqiqotchi Adam Smit "Mehnatsevarlik har qanday insoniy xususiyatlarda bo'lganidek, rag'batning miqdoriga qarab o'sib boradi. Shu bois, yuqori ish haqi berish orqali biz hamisha tashabbuskor, tirishqoq, fahm-farosatli kishilarni istaganimizcha topa olamiz. Past ish haqi bilan esa bunga erishib bo'lmaydi»[4]. Shu o'rinda migratsiyaning shakllanishi insoniyat paydo bo'lgandan to bugungi kungacha davom etib kelayotgan jarayon hisoblanadi. Unda insonlar o'zining doimiy istiqomat qilib turgan joyidan ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, geografik tomondan qulay bo'lgan joylarga ko'chib o'tishi, o'zlarining turmush tarzini munosib ravishda o'zgartirishga intilishini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda ham aynan mana shundek migratsion jarayonlarning globallashuv tendensiyasini ortib borayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Demak, mamlakatimizning barcha hududlarida aholi migratsiyasi jarayonini ortishi turli xil ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy omillar ta'sirida shakllanmoqda.

Dunyoning barcha mamlakatlari xalqaro migratsiyaning faol ishtirokchisi sifatida harakatlanadi. Bugungi kunda xalqaro migratsiya keng ko'lamli, murakkab, global, dinamik va ta'sirchan jarayon hisoblanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari bir paytning o'zida ham donor, ham ratsipient davlat sifatida gavdalanadi. Asosan mehnat migrantlarining boradigan va tranzit bo'lgan mamlakatlarda migratsiya bilan bog'liq muammolar va yangi imkoniyatlar mavjudligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy mamlakatlarda migratsiya siyosatining milliy va xalqaro miqyosda shakllanishida ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy barqarorligi darajasi dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu sohaning dolzarbligini aniqlashda migratsiya siyosatini makro darajada ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishni talab etmoqda. Migratsiya siyosatining nomukammalligi (noaniqligi) uning salbiy oqibatlarini kuchaytiradi, jumladan:

- noqonuniy migratsiyaning ko'payishi;

[1] Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: – "SamDCHTI" nashriyoti, 2023. – 6 bet.

[2] Доклад о миграции в мире 2022, Международная организация по миграции ISBN 978-92-9068-078-7 (PDF) https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022 Дата загрузки 1 декабря 2021 г.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 avgustda Xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokamasiga bag'ishlangan videoslektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. https://president.uz/uz/lists/view/3780

[4] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qo'li/

- migrantlarning nokonstruktiv iqtisodiy faoliyati;
- iqtisodiy betartiblikning kuchayishi;
- ijtimoiy zo‘riqishning kuchayishi;
- millatlararo, etnik nizolar, konfessiyalararo va boshqa nizolar xavfini oshirish;
- jinoyatchilikning shakllanishi kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqida ko‘plab mojarolarning kuchayishi oqibatida migratsiya siyosatini davlat va jamiyat hayotiga salbiy ta’siridan himoyalash uchun aniq tizimli, mukammal davlat siyosatini yuritishni talab etadi[1].

Shuningdek, mamlakat aholisining mehnat muhojirlarini eng muammoli vaziyatlardan yana biri noqonuniy migratsiyaning ko‘plab mamlakatlarda keng tus olganligidir. Buning asosiy sabablari quyidagilar:

Mamlakat mehnat bozori potensialini kattaligi, mehnatga haq to‘lash tizimining adolatli bo‘lmaganligi;

Yosh va malakali kadrlar uchun munosib ish haqiga ega bo‘lgan ish joylarining yetarli tashkil etilmaganligi va kadrlar mehnatiga to‘lanilayotgan ish haqi qoniqarsizligi;

Mehnat migratsiyasiga ehtiyoj sezadigan rivojlangan mamlakatlar bilan bitim, kelishuv yoki memorandumlar imzolanmaganligi;

Bunday kelishuvlar faqat qisman Rossiya Federatsiyasi va Janubiy Koreya Respublikasi bilan tuzilgan kelishuv barqaror amal qilgan bo‘lsada, Rossiya Federatsiyasi bilan tuzilgan mehnat migrantlariga oid hujjatni imzolanganligiga qaramasdan to‘liq amal qilinmayotganligi;

Hanuzgacha rivojlangan mamlakatlar hamda bugungi kunda migrantlarning asosiy qismi intilayotgan AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan migratsiya bo‘yicha kelishuvlarning mavjud emasligi kabi omillar nolegal mehnat migratsiyasini o‘sib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda, mehnat migratsiyasi zamonaviy voqelik uchun odatiy jarayon hisoblangan bo‘lsada, uning ayrim holatlaridagi muammoning jiddiyligi ortmoqda. Aslida migrantlar uchun psixologik shaxs uchun qiyin kechadigan jarayon sanalib, chunki u og‘ir ichki tajribalar bilan birga keladi, avvalo, mehnat muhojiri hayotining mutlaqo yangi muhiti va sharoitlariga moslashishi, o‘sha muhitda yashab mehnat qilishi kabi harakatlar bilan bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, ratsipient mamlakatining tub aholisi mehnat muhojirlarga nisbatan diskriminatsiya va salbiy munosabatda bo‘lishi bilan birga shaxslararo nizolarga ham ta’sir qilishi mumkin.

Demak, yangi stimullarga muvofiq migratsion harakatda shaxsning o‘zgaruvchan muhitidan kelib chiqib shaxlar munosabatidagi stereotiplar, shaxsning xulq-atvor komponentini o‘zgartirishi uni moslashuvchanligidagi faol harakatni o‘z ichiga oladi.

Shaxsning sotsial moslashuvi[2] - bu shaxsning yangi yashash muhitga moslashish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv yangi ijtimoiy sharoitga ijtimoiy jarayonlarga moslashishni, shaxsning psixologik xarakterdagi muammolarni ustida ishlashi yangi muhitga moslashishda, yaqin atrof-muhit bilan aloqa o‘rnatish, qadriyatlar va yangi madaniyatga xos bo‘lgan an’analar asosida yashashni o‘rganish kabi xususiyatlarni talab etadi.

Migrantlarda asosan quyidagi omillar yangi muhitga moslashishlarida turli xil sharoitlar ta’sirida biroz qiyinchilikga sabab bo‘ladi:

-iqlim sharoitidagi farq

-madaniyati va qadriyatlari

-munosabatlari

-ijtimoiy hayot muhitidagi farqlar

-mamlakatning tili, etnik va diniy qarashlardagi farqlar aholini yangi shaxslararo aloqalarni o‘rnatishida, ko‘plab moddiy va kundalik muammolarga uchraganda o‘zlari yengish kerak bo‘lgan og‘ir stressli vaziyatlardan biri deb qaraladi.

---

[1] N.A.Imomova. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta’siri. Monografiya.Toshkent. 2024. 148-bet

[2] Qomus info. Onlayn ensiklopediya. https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-moslashuv-uz/

Ushbu jarayonning murakkabligini anglagan T.G. Stefanenko ijtimoiy moslashishni shaxs va sotsial muhitning o‘zaro ta’siri natijasi deb izohlaydi, bu esa shaxs va guruhlarning o‘zaro munosabatlari ularning maqsadlariga ko‘ra muhojirlarning qadr qimmatini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ayni paytda qayd etish joiz bo‘lgan muammolardan biri-ming yillar davomida davom etib kelayotgan milliy qadriyatlarning migratsiya natijasida o‘zgarishlarga uchrayotgani va insonlar psixologiyasidagi assimilyatsiya va marginallik xususiyatlarini shakillanishi holatlarini mavjudligi bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda ruhiy holat ta’sirini yuqoriligi migrantlar yaqinlariga qoldirgan farzandlar misolida kurishimiz mumkin. Migratsiya ta’siriga tushib qolgan bolalar tarbiyasiga ta’sirida kuzatilayotgan o‘zgarishlar va ulardagi begonalashuv holatini ortib borishi kelajak avlodni ruhan tetik bo‘lib kamol topishiga o‘z ta’siri mavjudligi ehtimoli borligini ko‘rsatadi. Bunda asosan, ota-onasi mavsumiy yoki vaqtinchalik migratsiyani amalga oshirib, bobo-buvisi yoki boshqa qarindoshlari qaramog‘ida qolgan bolalarning tarbiyasida yuz beradigan o‘zgarishlar. Bunday bolalarda tarbiya usullarining bir tekis bo‘lmasligi kuzatilib, ularning ruhiyatida ham, ijtimoiy xatti-harakatida ham turli hil o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yana shunday holatlardan, ota-onasi bilan birgalikda migratsiya holatini boshidan kechirgan bolalarda kuzatiladi. Ularning bolalarini yoshi qancha katta bo‘lsa, yangi muhitga ko‘nikish darajasi ham shuncha qiyin bo‘lishini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirgan migrantlarning farzandlari xorijiy mamlakatlar qadriyatlari ta’siri ostida ulg‘ayadi. Eng avvalo, ona tilining yo‘qolishi eng fojeali holat hisoblanadi. Ona tilidan mahrum bo‘lish yoki uni unitishi holati bolalar tarbiyasida alohida iz qoldiradi. Xususan, millat qadriyatlaridan biri kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi fazilatlarni yo‘qolishi, sharmu hayoli bo‘lish, oilaviy qadriyatlarni saqlab qolishga e’tiborsizlik milliy tarbiyani izdan chiqarishi mumkin[1].

Demak, G‘arb “ommaviy madaniyati”, ilm-fanni, dunyoqarashi bilan boshqa xalqlar olami, boyliklari, ilmi o‘rtasida ma’lum bir farqlar, ziddiyatlar bor. Ammo taraqqiyparvar kuchlar, ayniqsa ilm-fan ahli Sharq va G‘arb sivilizatsiyasini uyg‘unlashtirish yo‘lidan borish lozim. Globallashuvning ijobiy maqsadi ham ana shundadir.

Migratsiya sohasidagi globallashuv tagida turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maishiy omillar yotadi. Demokratiya ustuvor bo‘lgan, inson erkinliklari ta’minlangan, farovon mamlakatlarga ko‘chish jarayoni XX asr oxiri XXI asr boshlarida avj oldi, bu asosan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi hududlarida ko‘proq kuzatildi. Bugun Yevropaga o‘rta hisobda har yili 4 milliondan ziyod, AQSHga va Janubiy Amerika davlatlariga taxminan 1,5 million kishi ko‘chib boradi. Ilmiy-texnika sohasidagi globallashuv ishlab chiqarishga ilm-fan yutuqlarini joriy etish, madaniy-maishiy xizmat turlarini kengaytirish, insonga ko‘proq bo‘sh vaqt qoldirishning umumsayyoraviy miqyosda an’anaga, tartibga aylanayotganida ko‘zga tashlanadi.

Ilm-fan yutuqlari insonni og‘ir qo‘l mehnatidan xalos qilib, ko‘proq samarali va daromadli mehnat bilan shug‘ullanishga imkon bermoqda. Globallashuvning bu jihati zamonaviy hayot tarziga endi oshno bo‘layotgan xalqlarni o‘ziga jalb etayotgani sir emas. Badiiy-estetika sohasidagi globallashuv modern, postmodern, syurrealizm, abstraktsionizm, dinamizm, impressionizm, pop-artxeppening, shlyager, avangard, giperrealizm, inkrustatsiya, kordebalet kabi turli san’at oqimlarining ommalashayotganida ko‘rinadi. Bu san’at turlarida “erkin ijod” tamoyiliga amal qilish musavvir, artist, bastakor, badiiy ijodga intilayotgan har bir kishi diqqatini tortmay qolmaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. PQ-4829-son 15.09.2020.

2. Bekmurodov M.B. Harakatlar strategiyasi: jadal ijtimoiy psixologik taraqqiyot va yangilanish modeli. “PSIXOLOGIYa” ilmiy jurnali, №2, 2017. 2-12 betlar.

3. Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: – “SamDCHTI” nashriyoti, 2023. – 6 bet.

[1] N.A.Imomova. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta’siri. Monografiya.Toshkent. 2024. 151-bet

4. N.A.Imomova. O'zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta'siri. Monografiya.Toshkent. 2024. 148-151-bet